

ПУДРАТ ШАРТНОМАСИ № 18

“22”июль 2022 йил

311-11-354-ХТ/2022

Бувайда тумани

Икки томонлама хўжалик муносабатларини ифодоловчи мазкур низом асосида иш юритувчи (кейинги ўринларда Пудратчи деб аталади) **ООО ANAS FREE BUILD** номидан раҳбар А.Маназаров биринчи томон ва иккинчи томон Ўзбекистон Республикаси Қонунчилиги хамда ўз Низомига асосан фаолият юритувчи Бувайда туман **Халқ таълими булими** номидан раҳбар А.Абдулфаттохов (келгусида Буюртмачи деб аталади)

1. Шартнома предмети.

1. Пудратчи ўз зиммасига буюртмачининг топшириғига асосан Бувайда туман ХТБ га карашли 25 мактаб биносини жорий таъмирлаш ишларини амалга оширади

2. Шартнома баҳоси.

2.1 Шартнома умумий қиймати 189250000 (Бир юз саксон туккиз миллион ики юз эллик минг) сўмни ташкил этади.

2.2 Шартноманинг баҳоси тарафларнинг розилигага асосан ўзгариши мумкин.

3 Тўлов шартлари.

3.1 Ушбу шартнома бўйича тўлов пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

3.2 Буюртмачи ушбу шартномага асосан Пудратчининг хисоб рақами бажарилиш лозим бўлган ишлар қийматининг 30% дан кам бўлмаган қисмини олдиндан ўтказиб беради.

3.3 Олдиндан тўланган тўлов қиймати амалга оширилгандан сўнг бажарилган ишлар учун тўловлар хар ойнинг охирида топширилган далолатномалар (ф-2) асосида амалга оширилади.

3.4 Шартнома бўйича барча хисоб-китоблар курилиш таъмирлаш ишлари тўлиқ тاماомлангандан сўнг 60 кундан кечиктиргани Буюртмачи томонидан амалга оширилади.

3.5 Шартномада белгиланган суммадан ортиқ қўшимча бажарилган таъмирлаш ишлари учун буюртмачи ўз маблағидан ёки хомийлар томонидан кўзда тутилаётган маблағлар хисобидан тўлайди.

3.6 «Пудратчи» ушбу шартномани 1-бўлимида назарда тутилган ишларни «Буюртмачи» томонидан 30 % фоиз бўнак (аванс) ни амалга оширилгандан сўнг 30 иш куни ичидаги ишларни амалга оширади.

4 Томонлар хукуқлари ва мажбуриятлари.

4.1 Буюртмачи Пудратчига ўз вақтида лойиха хужжатлари билан таъминлаши, шартномада кўрсатилган муддатда Пудратчига топшириши, Пудратчи томонидан бажарилган ишларни тўлиқ сифатини текшириб олиб қабул қилиб олиш.

4.2 Пудратчи ўз ишчи кучи билан ушбу шартномада ва иш режасида кўзда тутилган барча ишларни тўлиқ хажмда ва муддатида бажаришини ва тегишли лойиха хужжатларидағи ишларини Буюртмачига топшириши.

4.3 Жорий-таъмирлаш обьектлари учун зарур қурилиш материалларни конструкцияларни ташиш қабул қилиш хамда сақлашни Пудратчи томонидан амалга оширилади.

4.4 Пудратчи ушбу шартномада назарда тутилган бажарилиши лозим бўлган ишларни бажариш учун Буюрматчи билан келишилган холда маҳсус ташкилотларни (субпудрат) жалб қилиши мумкин.

4.5 Давлат назорат органлари томонидан ўтказилган текшириш, тафтиш ва ўрганиш натижасида бажарилган ишларнинг сифатсиз ва ўз вақтида бажарилмаганилиги аниқланса «Пудратчи» томонидан зарар қопланади.

5 Тарафларнинг жавобгарлиги.

5.1.«Пудратчи» хизмат кўрсатиш муддатларини кечиктирганда, шартнома бўйича ўз мажбуриятини лозим даражада бажармаган холларда «Буюртмачи»га кечиктирилган ҳар бир кун учун мажбурият бажарилмаган қисмининг 0.5% миқдорида пеня тўлайди, бироқ бунда пенянинг умумий суммаси етказиб берилмаган товарлар, бажарилмаган ишлар ёки кўрсатилмаган хизматлар баҳосининг 50 фоизидан ошиб кетмаслиги лозим. Пеняни тўлаш шартнома мажбуриятларини бузган тарафни товарларни етказиб бериш муддатларини кечиктириб юбориш, тўлиқ етказиб бермаслик, ишларни бажармаслик ёки хизматларни кўрсатмаслик оқибатида етказилган зарарни қоплашдан озод этмайди.

5.2.«Буюртмачи» кўрсатилган хизматлар ҳаққини ўз вақтида тўламаганлиги учун (етказиб берувчига)иш бажарувчига ўтказиб юборилган ҳар бир кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0,4 фоизи миқдорида, аммо кечиктирилган тўлов суммасининг 50 фоизидан ортиқ бўлмаган миқдорида пеня тўлайди.

5.3.Пеняни тўлаш шартнома мажбуриятларини бузган тарафни товарларни етказиб бериш (Ишларни бажариш) муддатларини кечиктириб юбориш, тўлиқ етказиб бермаслик, ишларни бажармаслик ёки хизматларни кўрсатмаслик оқибатида етказилган зарарни қоплашдан озод этмайди. Курилиш-таъмирлаш ишларини бажариш давомида юзага келган камчиликлар пудратчи айби билан бўлса Пудратчи Буюрмачига зарар етказмаган холда кўрсатилган муддатда камчиликларни бартараф этади.

6 Форс-мажор холати.

6.1 Тарафларнинг бирортаси хам бошқа тарафнинг олдида ушбу шартнома бўйича олинган мажбуриятларни улар истагидан ташқари пайдо бўлган ва уларни олдиндан кўра билиши ёки бартараф этиши мумкин бўлмаган холат бўйича уруш эълон қилиниши ёки амалда бошланганлиги фуқоролик тартибсизлиги, вабо тарқалиши, сув тошқини, ёнғин ва бошқа табиий оғатлар билан боғлиқ холда бажармаганликлари учун жавобгар бўлмайдилар.

6.2 Ўз мажбуриятларини бажармаган тараф бўйича мажбуриятини бажаришга унинг таъсир кўрсатиш ёки монелик қилиш тўғрисида бошқа тарафга имкон қадар тезроқ хабар бериши лозим.

7 Шартнома муддати.

7.1 Мазкур шартнома иккитомонорқали имзоланиб худудий Газначилик бўлинмаси томонидан рўйхатдан ўтказилгандан сўнг қонуний кучга киради.

7.2 Мазкур шартнома икки нусхада тузилган бўлиб, 2022 йил “22”июльдан 2022йил “31”декабргача амал қиласи.

8 Қўшимча шартлари.

8.1 Шартнома юзасидан келиб чиққан низолар ўзаро хал қилинади ўзаро хал қилинмаган тақдирда Ўзбекистон Республикаси қонунларига асосан иктисадий судлари орқали хал қилинади.

8.2 Шартнома икки нусхада тузилиб хар бир нусхаси teng юридик кучга эга бўлиб томонларда бир нусхадан сақланади.

8.3 Шартномага барча ўзгаришлар икки томонлама келишилган ва шартномага қўшимча битим имзоланган холда ва Газнатилик булинмасидан руйхатдан утгандан сунг қонуний деб хисобланади.

9 Томонлар хуқуқий манзили ва реквизитлари:

ПУДРАТЧИ:
ООО ANAS FREE BUILD
Кунгирот кишлоги
Тел/факс
Х/Р: 20208000005078050001

Банк: ХАТБ Универсал банк Бувайда Ф
МФО: 01151 ИНН: 306434870
ОКОНЧ _____



Рахбар: Маназаров

БҮЮРТМАЧИ:
Бувайда Халк таълими булими
Янгиургон кишлоги

• Ш/хр: 401722860302127092100075005

ИНН:200162514 ОКОНХ:97600

То ларказий банки
МФО:00014



Рахбар: Абдулфаттохов

Коррупцияга қарши қоидаларининг АСОСИЙ ШАРТЛАРИ

1. Томонлар шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажараётганда Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги қонун хужжатларининг талабларига зид келадиган ҳар қандай ҳаракатларни амалга оширмайдилар, шу жумладан пора, яъни (давлат органи ёки ташкилотнинг номи) ходими ўз хизмат мажбуриятларидан фойдаланган ҳолда пора берган шахснинг манфаатларини кўзлаб муайян ҳаракатларни содир этиши ёки содир этмаслиги шартлиги ёхуд мумкинлиги учун моддий қимматликларни ёки мулкий наф олиш учун қуидаги ҳаракатларни қилмайди:

пора беришни таклиф қилиш ёки ваъда бериш;
товламачилик қилиш;
пора сифатида пул тўлаш;
бевосита ёки билвосита пора олишга розилик бериш.

Томонлар ушбу ҳаракатларга йўл қўймаслик бўйича чоралар кўрилишига кафолат беради.

2. Агар шартнома бўйича бир Томон (давлат органи ёки ташкилотининг номи) ходимининг ахлоққа тўғри келмайдиган ва ушбу шартнома ёки Ўзбекистон Республикаси қонунчилик хужжатларига зид келадиган хатти-ҳаракатларига, шу жумладан, коррупцияга оид хуқуқбузарлик содир этишга мажбурлашдан иборат бўлган фактларга дуч келса, бу ҳақда қуидаги алоқа каналларидан бири орқали хабардор қилиши керак:

коррупция ҳақида хабар беришга мўлжалланган ишонч телефони;
Телеграм-канали “73-529-11-65”;
(давлат органи ёки ташкилотининг номи) расмий веб-сайтида жойлаштирилган шакл ёки электрон почта.

ТОМОНЛАР:



Бувайдада Ҳалқ таълими бўлими

А.Абдулфаттохов

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:

Xo‘jalik munosabatlari

2. Loyihaning nomi va ma’zmuni:

Buvayda tumani XTB ga qarashli 25-sonli umum-ta’lim maktabi binosini byudjetdan tashqari mablag‘lar xisobidan joriy ta’mirlash ishlarini amalga oshirish to‘g‘risida tuzilgan Pudrat shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot

Buvayda tumani Xalq ta’limi bo‘limi tomonidan ishlab chiqilib 2022 yil 18-iyul kuni tizimga kiritilgan.

4. Mas’ul ijrochi

Buvayda tumani yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga 2022 yilning 18-iyul kuni Buvayda tuman XTB tomonidan Buvayda tumani XTBga qarashli 25-sonli umum-ta’lim maktabi binosini joriy ta’mirlash ishlarini olib borish to‘g‘risidagi “ANAS FREE BUILD” MChJ bilan tuzilgan 189.250.000 (bir yuz sakson to‘qqiz million ikki yuz ellik ming) so‘mlik Pudrat shartnomasi loyihasi ekspertizadan o‘tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan.

Shartnomani o‘rganish davomida quyidagilar aniqlandi:

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 379 moddasiga ko‘ra, Agar shartnomaning mazmunidan boshqacha tartib anglashilmasa, u kimoshdi savdosini o‘tkazish yo‘li bilan tuzilishi mumkin. Shartnomaga kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs bilan tuziladi. Shuningdek, kimoshdi savdosida g‘olib chiqqan shaxs va kimoshdi savdosining tashkilotchisi auksion yoki tanlov o‘tkazilgan kuni kimoshdi savdosining natijalari to‘g‘risida bayonnomma imzolaydilar, ushbu bayonnomma shartnomaga tuzish uchun asos bo‘ladi. 2022-yilda Buvayda tumani XTB qarashli 25-sonli umum-ta’lim maktabi binosini joriy ta’mirlash ishlarini olib borish uchun smeta ekspertiza xulosasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli qonunini hamda “Xarid qilish va tartib taomillarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi

nizom ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika tovar xom ashyo birjasining xarid.uz saytidagi Halq ta'limi bo'limining shaxsiy kabineti orqali 115618-sonli LOT raqami bilan 2022 yil 29-iyun kuni e'lon joylashtirilgan va 2022 yil 7-iyul kuni g'olib aniqlanib elektoron yig'ilish bayoni tuzilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligining "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 3016 - son buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomning 117-bandiga binoan, tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtidan e'tiboran o'n kundan kechiktirilmagan muddatda shartnoma tuzilishi belgilangan.

Buvayda tumani Davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markaziga «E-HUQUQSHUNOS» elektron tizimi orqali Buvayda tumani xalq ta'lim bo'limi tomonidan Buvayda tumani XTBga qarashli 25-sonli umum-ta'lim maktabi binosini joriy ta'mirlash ishlari olib borish to'g'risidagi Pudrat shartnomasini loyihasi joriy yilning 18-iyul kuni kelib tushgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligining "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 3016 - son buyrug'i bilan tasdiqlangan nizomning talablariga muvofiq, Yuridik xizmat ko'rsatish markaziga ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA QILAMAN:

Buvayda tumani XTBga qarashli 25-sonli umum-ta'lim maktabini binosini joriy ta'mirlash ishlarini olib borish to'g'risida Pudrat shartnomasi loyixasi O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida" gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy Agentligining "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 3016-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizomning talablariga muvofiq ishlab chiqilganligi sababli uni qabul qilish va ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb topilsin.

2022-yil 18-iyul

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
Bosh yuriskonsulti



O.Xudoynazarov

**Бувайда тумани халқ таълими бўлими мудири ҳузуридаги йигилиши
БАЁННОМАСИ**

2022 йил 22 июль

Қоратепа қишлоғи

Йигилиш раиси

А.Абдулфаттохов

Котиб:

Ю.Юлдашева

Йигилишда катнашдилар: ХТБ мұхандиси Н.Ортиқов, комиссия аъзолари Д.Фофуров, Ш.Холдарқўзиев, К.Ўлжабоев

КУНТАРТИБИ:

1. Тумандаги 25-умумий ўрта таълим мактаби биносини жорий таъмирлаш.

Туман халқ таълими бўлими мудири А.Абдулфаттохов йигилишни очиб, у ўз сўзида тумандаги тумандаги 25-умумий ўрта таълим мактаби биносини таъмирлаш учун <https://etender.uzex.uz> сайтига эълон киритилиб 22110012115618 лот рақами остида энг яхши таъмирловчи танлаб олинганлигини айтиб ўтди. 20.07.2022 йил кунидан 22.07.2022 йил кунигача комиссия аъзоларига пурратчилар томонидан хеч қандай эътиrozлар келиб тушмаганлигини билдириб ўтди.

ХТБ бош мұхандиси Н.Ортиқов ва комиссия аъзоси Д.Фофуровлар музокара учун сўз олиб ўз фикр ва мулоҳазаларини айтиб ўтди.

Кун тартибидаги масала атрофлича мұхокама қилиниб, йигилиш

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Тумандаги 25-умумий ўрта таълим мактаби биносини таъмирлаш тўғрисидаги ХТБ мудири А.Абдулфаттоховнинг маъruzаси асос учун қабул қилинсин.
2. Курилиш ва таъмирлаш ишларини назорат қилиш ХТБ мұхандиси Н.Ортиқов ва ХТБ мутахассиси К.Ўлжаевлар масъул этиб белгилансин.
3. Ушбу карорни бажарилишини назорат қилиш бош ҳисобчи Ю.Юлдашева зиммасига юқлатилсин.

Йигилиш раиси:

А.Абдулфаттохов

Котиб:

Ю.Юлдашева

